

Maqsadli qabul



O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2019 yil 4 iyuldagi 1-son bayoni 20-ilovasi bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta'lim shakliga suhbat natijalariga ko'ra tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish tartibi"ga asosan Madaniyat vazirligi tasarrufidagi muassasalarda faoliyat yuritayotgan, kamida 5 yil ish stajiga ega bo'lgan soha xodimlari orasidan talabgorlar joriy yilning 30 iyuliga qadar O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining **qabul_2021 @dsmi.uz** elektron pochta yoki **+998 909972372** telegram raqami orqali hujjat topshirishlari tavsiya etiladi.

2019 yil 17 iyundagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining "Oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi PQ-4359 son qarorining 6 bandiga muvofiq oliy ta'lim muassasalariga 2019/2020 o'quv yilidan boshlab vazirlik, idora va yirik xo'jalik birlashmalarining (ish beruvchilar) ehtiyojlaridan kelib chiqib, kunduzgi bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos

bo'lgan yo'nalishlar doirasida tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt asosida sirtqi va kechki ta'lim shaklida o'qitishni tashkil etish huquqi berilgan. Bunda, o'qishga qabul qilish tegishli ish beruvchilarning tavsiyasi asosida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan xodimlar hisobidan keyinchalik ushbu tizimda besh yil ishlab berish sharti bilan ish faoliyatiga mos bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat natijalariga asosan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 27 noyabrdagi "Oliy ta'lim muassasasida sirtqi (maxsus sirtqi) va kechki (smenali) ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 930-son qarori asosan sirtqi ta'limda o'qish muddati kamida 5 yil deb belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasining 2020 yil 25 sentabrdagi 5-son bayonida 2020/2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalariga iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo'lgan va tegishli tavsiyanoma bilan suhbat asosida qabul qilinganlar uchun to'lov-kontrakt miqdorlari mos ravishda har yili amalda belgilangan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va shakli bo'yicha bazaviy to'lov-kontrakt qiymati miqdorlariga nisbatan 2 baravarida (har o'quv yili uchun) belgilanganda.

Shartnoma to'lovlari miqdorlari